

## SAID AHMAD " KIPRIKDA QOLGAN TONG ASARI"

*Andijon davlat chet tillari instituti*

*Roman- german va slavyan tillari fakulteti*

*Xorijiy til va adabiyoti: rus tili yo'nalishi*

*III- kurs talabasi To'lanboyeva Mohinur*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'z asarlarida muxtasar so'zdan haqiqiy mo'jiza yarata oladigan ijodkor Said Ahmadning "Kiprikda qolgan tong" qissasida yozilgan asarlarni tahlil qilib, ko'rib chiqamiz. Adib ushbu asarida biz singari kitobxonning butun diqqat etiborini o'z ijodiga "qorib" asar hayotidagi hayolotlar ummoniga g'arq qiladi. Yozuvchi ijodida adabiy tilning butun imkoniyatlaridan samarali foydalangan, so'zni buyuk bilib uni qadrlagan, shu bois asarlari o'ta ta'sirchan hamda o'qimishli.

**Annotation:** In this article, we will analyze and examine the works written in Said Ahmad's novella "Kiprikda qolgan tong", a creator capable of crafting real miracles from concise words. In this work, the writer immerses the reader, like us, into a sea of imagination, blending the reader's entire attention with his creativity. In his writing, the author effectively utilizes the full potential of the literary language, valuing words as something great and precious, which is why his works are deeply impactful and engaging.

**Аннотация:** В данной статье мы анализируем и рассматриваем произведения, написанные в повести Саида Ахмада «Киприкда қолган тонг» (Утро, задержавшееся на ресницах), творца, способного творить настоящие чудеса краткими словами. В этом произведении писатель, как и нас, погружает читателя в море фантазий, вовлекая всё его внимание в своё творчество. В своём творчестве автор эффективно использовал весь потенциал литературного языка, считал слово великим и ценил его, поэтому его произведения крайне выразительны и увлекательны.

**Kalit so'zlar:** romanlar, yozuvchilar, qissalar, o'zbek adabiyoti, jahon adabiyoti, Said Ahmad, O'lmas Umarbekov, badiiy so'z, asar mazmuni, voqealar tafsiloti.

O'lmas Umarbekov- O'zbekiston xalq yozuvchisi, o'zining ko'plab romanlariyu-qissalari bilan ko'plab kitobxonlarning qalbidan joy olgan adib. Adib xalq va ustozlar nazariga tushgan nurli inson bo'lgan, uning nafaqat asarlari balki hayot yo'li ham g'oyat ibratlidir. O'lmas Umarbekov hayoti haqida yozilgan eng ajoyib asar bu Said Ahmadning "Kiprikda qolgan tong" qissasidir. Bu asarda siz O'lmas Umarbekov, Said Ahmad, Abdulla Qahhor kabi buyuk yozuvchilarimizning sermazmun hayotiga nazar tashlaysiz, ularni qalbdan anglaysiz. Buyuk yozuvchi asarni shunday boshlaydi:., Insonni badnom qiladigan har qanday harom- xarish ishlardan o'zini tiya olgan, bu

dunyoga pok kelib, pok ketgan, nurdek tiniq hayot kechirgan, Alloh dargohiga farishta bo'lib yo'l olgan do'stim, ukam, jigarim, qadrdonim, hotirasi hech qachon yodimdan chiqmaydigan sevikli yozuvchim O'LMAS UMARBEOVga bag'ishladim ushbu qissani".

Asar yozuvchi-yu shoirlar haqida bo'lgani uchun, qissada ularning ijod namunalari keltirilgan. Biz siz bilan ularning qachon yozilganini va asarning mohiyatini qisqacha tahlilini ko'rib chiqamiz.

1. O'lmas Umarbekovning " Sevgim, Sevgilim" qissasi 1963- yilda yozilgan. Asarda yosh agronom O'ktam va go'zal Oypopukning Yakkachinordagi muhabbati haqida hikoya qilinadi.

2. Abdulla Qodiriyning " O'tkan kunlar " romani 1920- yillar boshida yozilgan bo'lib, 1922- yil ilk bor " Inqilob" jurnalida chop etilgan va 1926- yilda alohida kitob holida chiqarilgan. Roman XIX asr voqealarini o'z ichiga olgan. Murakkab tarixiy hodisalar romanning bosh qahramonlari Otabek va Kumushbibi fojeaviy sevgi qissasi atrofida ifodalangan. Voqealar rivoji mahalliy hukmdorlarning hokimiyat uchun qonli kurashlari muhitida kechadi.

3. " Qutlug' qon" - Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek qalamiga mansub tarixiy-badiiy roman. Asar 1938- yilda yozib tugatilgan, 1940- yilda kitob xolida nashr etilgan. "Qutlug' qon" asarida o'zbek xalqining yaqin o'tmishdagi rus bosqinchilari va mahalliy amaldorlar tomonidan ezilganligi, xalqning o'z ahvolini anglab ularga qarshi bosh ko'targani badiiy tasvirlangan.

4. " Sarob" - romani Abdulla Qahhor tomonidan 1943- yil yozilgan. Bu roman xazon bo'lgan muhabbat, uvol bo'lgan umr dostonidir Ikki ko'rkam yoshning bir biriga munosib, aslida baxt uchun tug'ilgan, ammo shaxsiyatidagi, tabiatidagi ojizliklar, qolaversa, jamiyatdagi ziddiyatlar tufayli hayotta o'z o'rnini, baxtini topolmagan navqiron avlodning achchiq fojiviy qismati, ruhiy iztiroblari, oh- zorlari to'g'risidagi asardir. Saidiy bilan Munisxon muhabbati, ular umrining zavol topishida ular tushib qolgan sharoit, vaziyatning ziddiyatlarga to'la davrning hissasi, ta'siri katta.

5. " Qoraqalpoq daftari" Mirtemir Tursunov tomonidan 1957- yilda yozilgan. To'plam xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik g'oyalari shoirning qozoq va qirg'iz, turkman diyorlariga qilgan safarlari ta'sirida yozilgan she'rlarida katta mahorat bilan davom ettirildi.

6. " Mirzo Ulug'bek" 1961- yilda yozilgan bu tragediya Maqsud Shayhzoda qalamiga mansub bo'lib, bosh qahramon obrazining Amir Temur va temuriylar davrida o'zbek xalqi hayotida ro'y bergan " Uyg'onishning yorqin timsoli" sifatida aks ettirilgan. Shekspirona uslubda yozilgan bu asarda Shayhzoda Mirzo Ulug'bek hayotini so'nggi ikki yilini tasvirlash orqali uning tasvirini yaqqol ko'rsatib bera olgan. Mantiqiy ko'lam va harorat bilan yozilgan " Mirzo Ulug'bek tragediyasining maydonga kelishi o'zbek dramaturgiyasi va teatri tarixida katta voqea bo'ldi.

7. " Shum bola" asari G'afur G'ulom tomonidan 1936- yilda o'z bolalik hotiralarini hayolida qayta jonlantirib yozgan qissasi hisoblanadi. Ammo adib bu qissasini umrining oxirigacha yanada sayqallab, boyitib boradi, o'tgan asrning 60-yillariga kelib hozirgi mukammal holiga keltiradi.

8. " Qo'shchinor chiroqlari" romani Abdulla Qahhor tomonidan 1951 - yilda chop etilgan bo'lib ( dastlabki variatni " Qo'shchinor" (1946) ), jamoalashtirish davrining voqealari badiiy tasvirlangan.

9. " Asror bobo" - mohir o'zbek hikoyanavisi Abdulla Qahhorning mashhur hikoyalaridan biri. Professor Yo'ldosh Solijonovning fikriga ko'ra, ushbu hikoya qahramon psixologiyasini ochishda detallardan foydalanishning eng yaxshi namunasidir. "Asror bobo" urush davrida yozilgan hikoyalar orasida eng yaxshisi deb tan olingan.

10. "Yalpiz hidi"- hikoyasi Said Ahmad tomonidan 1960- yilda yozilgan bo'lib, asarda ikki tanish insonning suhbatida kishi hayoti davomida sadoqat, vafo, hayo qanchalar muhim ekanligi uqtiriladi.

11. " Boy ila xizmatchi" - sinfiylik va partiyaviylik adabiy asarning qimmatini belgilovchi asosiy mezon hisoblangan davrlarda Hamza Hakimzoda Niyoziyning bu pyesasi butunlay qayta yozob chiqilgan.

12. " Ufq" - trilogiyasi Said Ahmad tomonidan 1964-1974 yillar oralig'ida yozilgan, uch qismdan iborat roman. Trilogiyada yozuvchi Ikkinchi jahon urushining olovli yillarida o'zbek dehqonlarining front orqasida ko'rsatgan mehnat qahramonliklari haqida hikoya qiladi, urushdan oldingi va keyingi davr muammolari haqida bahs yuritadi.

13. " Kecha va Kunduz" - o'zbek yozuvchisi Abdulhamid Cho'lpon tomonidan yozilgan roman. Bu asarga " O'tkan kunlar" asari darajasida deb baho berilgan. U o'zbek adabiyotidagi ilk roman- dilogiya bo'lib, 1936- yilda to'liq holda nashr etilgan. Asardagi voqealar ilk bahorda boshlanib, qish chillasida tugaydi. " Kecha va Kunduz " romanida xalq va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga molik bo'lgan barcha ziddiyatlar, adibning bor orzulari ifodalangan.

14. " Oltin devor" - Erkin Vohidov tomonidan yozilgan komediya bo'lib, uzoq yillar mobaynida o'zbek teatri sahnasidan tushmay keldi. Bu komediya dunyoning qator tillariga tarjima qilinib, teatrlarda sahnalashtirildi.

15. " Kelinlar qo'zg'aloni" Said Ahmad tomonidan o'tgan asrning 70-80- yillarda o'z hikoyag'ari asosida yozilgan pyesadir. Milliy teatrimizda ilk bor sahnalashtirilgan bu spektakllar xalqimiz o'rtasida juda katta shuhrat topib, hozirgacha teatrdan tushmay keladi.

16. " Arshin mol olon" - Azarbayjon yozuvchisi Uzeir Hajibekov tomonidan 1913- yilda yozilgan musiqali drama bo'lib, o'z davring teatr hamda television dasturlarni bezagan asar hisoblanadi. Ushbu musiqali drama hozirgacha ko'plab davlat

televizion kanallarda namoyish qilinadi. Jumladan o'zbek tomoshabinlarining ham ko'nglidan keng joy olgan.

17. " Bahor qaytmaydi"- O'tkir Hoshimov tomonidan 1969- yilda yozilgan qissadir. Qissada yozuvchi iste'dodli, biroq uning qadriga yetmagan, ulug' maqsadlardan mahrum xudbin yigitning tanazzul tarixining ruhiy- ma'naviy inqirozini san'atkorona tahlil etgan.

18. " Urushning so'nggi qurboni" - hikoya O'tkir Hoshimov tomonidan 1969- yilda yozilgan. Asar urush va uning fojiali oqibatlariga olib kelishi haqida qisqa bir misoldir.

19. " Sehrli qalpoqcha" - dunyoning 24 ta tiliga tarjima qilingan bu asar Xudoyberdi To'xtaboyev tomonidan 1963- yilda yozilgan. Asar nafaqat o'zbek adabiyotiing, balki jahon adabiyoti ko'lamida ham bolalar uchun yaratilgan sarguzasht asarlarining eng yaxshi namunasiga aylangan.

20. " Besh bolali yigitcha" - romani Xudoyberdi To'xtaboyev tomonidan 1976- yilda yozilgan bo'lib, urushning yosh bolalar hayotiga qanday ta'sir qilishi haqida hikoya qiladi.

21. " Qasoskorning oltin boshi" - Xudoyberdi To'xtaboyev tomonidan 1981- yilda yozilgan. Mazkur asarda o'zbek xalqining tarixida o'chmas iz qoldirgan xalq ozodlik harakatiga boshchilik qilgan qahramonlardan biri Manoz botir haqida so'z ketadi.

22. " Dunyoning ishlari"- O'tkir Hoshimovning bu qissasi 2005- yilda "Sharq" nashriyatida chop etilgan. Asar eng ezgu, eng samimiy tuyg'ular haqida bo'lib, eng e'zozli zot - Ona to'g'risida hikoya qiladi.

23. " Dekameron" - asari Bokkachcho Javanni ijodining cho'qqisi hisoblanadi. Asar 1350-53- yillarda yozilgan. Unga 7 ayol va 3 yigitning 10 kun davomida aytgan hikoyalari asos bo'lgan. Asar nomlanishi ham shundan ( yunoncha " dekameron" - o'n kunlik ). Bokkachcho bu asarida xurofotga qarshi oddiy inson va uning erkin muhabbatini ulug'lab, zohidona hayotni rad etgan.

24. " Yoshlik devoni" Erkin Vohidov tomonidan 1969- yilda yozilgan. „ Yoshlik devonini o'qir ekansiz, shoir qalbidan sizib chiqayotgan mas'um tuyg'ular go'yo sirli, sehrli so'zlarga aylanadi,- deydi Abdulla Oripov.

26. " Buyuk hayot tongi" - dostoni Erkin Vohidov tomonidan 1960-65- yillarda yozilgan bo'lib, asarda shoir Leninning yoshligi haqidadir. Dostonda Leninning Simbirsh ( hozirgi Ulyanovsk) shahrida o'tkazgan vaqti, gimnazist chog'ligida daryoda cho'kayotgan boshqa bir bolani qutqarib qolgani haqida so'z yuritadi.

27. " Qizimga maktublar ( Mangu hayot bo'sag'asida) " - O'lmas Umarbekov tomonidan 1994- yilda yozilgan. Adibning so'nggi publitsistik asarida hayotga, o'tkinchi umrga, chuqur falsafiy nazar tashlovchi, o'ziga va o'zgalarga hayotiy

tajribasida yuksak hulosalar chiqaruvchi yozuvchi darajasiga ko'tarilganini namoyish qilgan.

28. " Fotima va Zuhra" O'lmas Umarbekovning bu asari 1994- yilda nashr etilgan. Asar detektiv yo'nalishda yozilgan bo'lib, mustaqillikdan oldin respublikamizda ildiz otayotgan mafiya va uni qo'llab- quvvatlayotgan rahbarlar, ularning kirdikorlari ularga qarshi kurashayotgan qonun posbonlar, bir oilaning butunlay barbod bo'lishi tavsilotlari aks etgan.

29. " Yoz yomg'iri" O'lmas Umarbekov tomonidan 1973- yil yozilgan. Adibning " Tanlagn asarlar" II- jildiga kirgan bu qissasi o'tgan arsning detektiv yo'nalishda yozilgan asarlarning eng cho'qqisi bo'la oladi.

"Kiprikda qolgan tong" asari buyuk yozuvchi, davlat arbobi, ssenariynavis O'lmas Umarbekovga bag'ishlangan bo'lib, undan tashqari Abdullar Qahhor, Xudoyberdi To'xtaboyev, Erkin Vohidov, Anvar Obidjonning nurki hayotini ham yoritib bergan qissada o'ttizta asar nomi keltirilgan bo'lib, ularning sakson foizi XX asr o'zbek adabiyotini boyitgan asarlar bo'lsa, 10 foizi XVIII asr xazilanari, qolgan 10 foizi esa zamon va makon bilmas jahon adabiyotining nodir namunalari hisoblanadi.

Ushbu asarlar hali hanuz kitoblarxonlarning e'tiborini jalb qilib kelayotgan asarlardir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar"**

1. Tanlangan asarlar II jild. Said Ahmad. " Sharq" NMAK bosh tahririyati, Toshkent-2005
2. Toshkent - " Fan va texnologiyalar " 2008.
3. " Dekameron asari tahlili" 2024.